

*Yo‘ldosheva Husnidaxon Kenjabek qizi*

*Andijon Qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

*Yurispredunsiya ta‘lim yo‘nalishi 2.108-guruh talabasi*

**Annotasiya:** Mazkur maqolada „O‘zbekiston Respublikasining yangilangan saylov tizimi“ haqida yoritib berilgan. Bilamizki, Saylov — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o‘z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ham O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazilayotgan aralash saylov tizimi haqida yoritilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** majoritar saylov, proporsional saylov, aralash saylov tizimi, siyosiy partiyalar, konstitutsiya, saylov kodeksi, saylov to‘g‘risidagi qonun.

**Аннотация:** В данной статье описана обловленная избирательная система Республики Узбекистан. Мы знаем что выборы - это средство организации государственных органов, органов местного самоуправления и других структур посредством голосования. Осуществление избирательного права граждан является одной из важнейших форм их участия в государственном управлении. В данной статья также описывается смешанная избирательная система/ которая провидится впервые в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Мажоритарные выборы, пропорциональные выборы, смешанная избирательная система, политические партии, конституция, избирательный кодекс, избирательное право.

**Abstract:** This article describes the updated electoral system of the Republic of Uzbekistan. We know that elections are a means of organizing state bodies, local self-government bodies and other structures through voting. Exercise of the right of citizens to vote is one of the most important forms of their

*participation in state management. This article also describes the mixed election system that is being held for the first time in Uzbekistan.*

**Key words:** *Majoritarian election, proporsional election, mixed electoral system, political parties, constitution, election code, election law.*

**Saylov tizimi** — saylov o‘tkazish tartiblarining hamda ularni o‘rnatuvchi huquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo‘lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o‘z ichiga oladi. Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining quyidagi turlari qo‘llanadi:

- proporsional
- aralash
- majoritar

**Majoritar saylov tizimi.** Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — ko‘pchilik so‘zidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko‘p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro‘yxati) muayyan okrug bo‘yicha saylangan hisoblanadi.

**Proporsional saylov tizimi.** Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo‘lib, bunda mandatlar o‘z nomzodlarini vakillik organlariga qo‘ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o‘rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi.

### **Tarixi:**

Markaziy Saylov komissiyasi Matbuot markazining ma’lumotiga ko‘ra 2024-yil 27-oktyabr kuni o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari deputatlari sayloviga Markaziy Saylov komissiyasining 2024-yil 26-iyuldagi qaroriga asosan start berildi. Markzaiy Saylov komissiyasining 2024-yil 21-avgustdagi qarorlariga

ko'ra mamlakatdagi 5 ta siyosiy partiyaga saylovlarda ishtirok etish uchun ruxsat berildi.

**Saylov jarayonlar:**

O'zbekistonda ilk marotaba Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi, ya'ni majoritar-proporsional tizim asosida o'tkazilmoqda. Deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar, 75 nafari esa, proporsional tizim bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida saylanishadi.

Jumladan, Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra:

- Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun 75 ta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi;

- Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekistonning butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi;

- Partiya ro'yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin, ushbu ro'yxatga kiritilganlar deputatlikka nomzod maqomini oladi va ularga guvohnoma beriladi;

- Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilgan deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi;

ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.

Saylovlar birinchi marta majoritar-proporsional (aralash) tizim asosida o'tkaziladi. Bu tizimda saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga bo'linadi. Parlament quyi palatasi deputatlarining 75 nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha majoritar tizim (nomzod uchun ovoz berish), qolgan 75 nafari proporsional tizim bo'yicha, ya'ni siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida (partiya ro'yxati asosida) saylanadi.

Xulosa qilib aytganda har bir mamlakatda saylov jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Saylovning asosiy jihati deb omma ichidagi salohiyatli, jonkuyar kishilarni saylab olishdir. O‘zbekiston Respublikasi ham siyosiy partiyalarning rolini oshirish uchun aralash saylov tizimiga o‘tildi. Kelajakda bu saylov tizimi avvalgi tizimlardan yaxshi natijalarni beradi deb umid qilamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining saylov kodeksi.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi qonun.
- 3.“Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonun. .
- 4.“Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi qonun.